

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1-yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik
Oltinko'l	1 042	1 144
Andijon	1 672	1 885
Baliqchi	1 207	1 232
Bo'ston	672	749
Buloqboshi	585	594
Jalaquduq	869	832
Izboskan	938	1 102
Ulug'nor	631	655
Qo'rg'ontepa	988	996
Asaka	1 666	1 663
Marhamat	911	973
Shahrixon	1 349	1 463
Paxtaobod	759	842
Xo'jaobod	850	930
Andijon sh.	5 492	6 052
Xonobod sh.	336	391


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabrida 4 638 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 725 ta, sanoatda 992 ta, boshqa xizmatlarda 657 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Oltinko'l	219	248
Andijon	355	271
Baliqchi	267	271
Bo'ston	209	192
Buloqboshi	177	160
Jalaquduq	169	170
Izboskan	218	308
Ulug'nor	210	191
Qo'rg'ontepa	299	231
Asaka	269	371
Marhamat	179	165
Shahrixon	241	282
Paxtaobod	162	193
Xo'jaobod	201	197
Andijon sh.	871	1164
Xonobod sh.	76	102

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70,1% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarishsiz qolgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi xizmatlar sohasida – 36,7 %, sanoatda – 38,0 %, qurilishda – 6,6 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 27,3 %ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabroylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **41 039,9** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 38,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 151,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Izboskan tumani (100,0 %), Jalaquduq tumani 99,3%), Ulug'nor tumani (97,4%), Shahrixon tumani (94,8 %) va Andijon tumani (86,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-dekabroylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 13 977,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (99,6 %), Izboskan tumani (99,5 %) va Oltinko'l tumani (97,7 %) xissalariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 20 011,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabroylariga nisbatan 129,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oltinko'l tumani (96,1 %), Izboskan tumani (95,5 %), Andijon tumani (95,1 %) va Bo'ston (94,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 50 185,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93, % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabroylariga nisbatan 108,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xonobod shahri (99,3 %), Andijon tumani (98,8 %), Baliqchi tumani (98,1 %), Jalaquduq tumani (97,4 %) va Paxtaobod (96,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo
faoliyati

2025 - yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 30 380,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 92,5,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabroylariga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qo'rg'ontepa (99,2 %), Buloqboshi (98,9 %), Ulug'nor (98,9 %) va Marhamat (98,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 39 288,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 72,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024 - yil yanvar-dekabroylariga nisbatan 121,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Baliqchi (84,1 %), Marhamat (77,7 %), Jalaquduq (67,9 %) va Oltinko'l (66,8 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 637,2 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 47,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Izboskan tumanida – 100,0 %, Jalaquduq tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida– 100,0 % va Shahrixon tumanida – 98,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- dekabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 637,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 47,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi, Baliqchi tumanida – 100,0 % Bo'ston tumanida – 100,0 % Izboskan tumanida – 100,0 % Ulug'nor tumanida– 100,0 %, Jalaquduq tumanida – 100,0 %, va Shahrixon tumanida– 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 79,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8,% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103, % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 44,7% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 33,7 % a yetgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 47,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 60,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 8,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 6,2 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabroylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillaring mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 44,7 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 39,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 53,0 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 59,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 8,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 7,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p savdo – 36,6% ni, xizmatlar sohasida – 32,8 % ni, qurilishda – 35,2 % ni, Sanoatda – 32,9 % ni va qishloq xo'jaligi 19,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligi –82,9 % ni, sanoatda – 58,1 % ni va savdoda – 58,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 9,0 % ni, savdoda – 5,1 % ni va xizmatda – 6,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>